

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARINI ALLOMA VA MUTAFAKKIRLAR BILAN TANISHTIRISH.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lif fakulteti talabasi

Ig'lomova Dilnura Zokirovna

Annotasiya: Ushbu maqolada bolalarni buyuk ajdodlarimiz va ularning o'chmas meroslari bilan tanishtirish va ularni yuksak marralarni egallashida zamin bo'lib xizmat qiladi. Qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak g'oyalarga asoslangan boy ma'naviy merosi biz avlodlar uchun o'rnakdir.

Kalit so'zlar: Me'ros, ma'naviy, madaniyat, tarbiya, mutafakkir, alloma, axloq umumbashariy, umuminsoniy.

Men Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasiman. Biz buyuk ajdodlarimizga bag'ishlab tadbir o'tkazmoqchi edik, tadbirni qanday chiqishlar bilan o'tkazish to'g'risida kursdoshlar bilan o'zaro baxslashdik. Baxs shunday foydali va qiziqarli bo'ldiki biz bu bobokalonlarimiz haqda qancha gapirsak, qancha e'zozlasak, oz ekanligi bunday ulug' zotlarning bizga qoldirib ketgan ulkan merosining adog'i yo'qligi haqda har bir talaba o'z fikrini bildirdi. Darhaqiqat bobokalonlarimiz bizga qoldirgan meroslari o'lmas bo'lib, asrlar davomida biz uchun ma'rifatli bo'lishimiz, porloq kelajagimiz uchun tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Ulug' ajdodlarimizning aql-zakovati va baadiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan matematika, kimyo, astronomiya, tibbiyot, farmasevtika, tarix, adabiyot, san'at, falsafa, va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi. Buyuk adib va

mutafakkirlarimizning nodir merosi,ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish,yoshlarimizni o‘zlikni anglash,milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.Bu borada ulkan ishlar qilinmoqda. Islom diniga ulkan hissa qo‘sghan buyuk allomalarimizning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o‘rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug‘ allomalar, aziz avliyolar vatani bo‘lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o‘rtasida keng targ‘ib qilish, milliy-diniy qadriyatlаримизни асраб-аваялшаш ва ривожлантриш, шу асosда ўosh avlodni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kuchaytirish bosh g‘oyamizga aylandi. Muhtaram Prezidentimiz qayerga bormasinlar, yurtimizning qasi go‘shamizda bo‘lmasinlar o‘sha yerda tug‘ilib o‘sgan aziz-avliyolar, olimu mutafakkirlarning nomini va merosini tiklash, abadiy qo‘nim topgan yerlarini obodonlashtirish, ularning nomi bilan ataluvchi turli ziyo maskanlarini tashkil etish va ularning faoliyat miqyosini keng va aniq belgilab berish ishlarida shaxsan o‘zlari tashabbuskor bo‘lmoqdalar. Hozirda yurtimiz allomalarining ko‘plab asarlari chop etilmoqda. Shu kunga qadar Termiziy allomalarining 20 dan ortiq asarlari, Imom Buxoriy hazratlarining “al-Jome’ as-sahih”, “al-Abad al-mufrad” asarlari ham bir necha bor minglab tirajlarda chop etildi va chop etilmoqda.Bugungi kunda Imom Buxoriy hazratlarining boy ilmiy meroslari va u zotning islom olamida tutgan bemisl o‘rinlarini keng jamoatchilikka tanitish ishlariga doir Prezident hamda hukumat qarorlari qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 mart kuni qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2855-sonli Qarori buning yaqqol misoli bo‘la oladi.Qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak gumanistik g‘oyalarga asoslangan boy ma’naviy merosi umumbashariy sivilizatsiya va madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgani dunyo jamoatchiligi tomonidan haqli

ravishda e'tirof etiladi.Ulug‘ ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan, matematika, mineralogiya, astronomiya, kimyo, tibbiyat, farmatsevtika, me'morlik, tarix, adabiyot, san'at, ilohiyot, falsafa va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi.Ana shunday beqiyos merosimiz asosida tashkil etilgan “Yosh kitobxon” tanlovida 250 ming nafarga yaqin yosh ishtirok etib, tanlov g‘oliblariga “Prezident sovg‘asi” — yengil avtomashina topshirilgani yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyati rivojlanishiga muhim ta’sir o‘tkazdi. Buyuk adib va mutafakkirlarimizning nodir merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarimizni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.Shu bilan birga kelajak yosh avlodni allomalarimiž merosi bilan tanishtirish biz tarbiyachilarining vazifasidir.Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig‘ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g‘oyalar islomiy ma’naviyat bilan hamohangdir. Sharq mutafakkirlari o‘z ilmiy meroslarida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e’tibor bergenlar. Muhammad ibn Muso alXorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma’naviy-axlo-32 qiy tarbiyalash masalalari o‘rtaga qo‘yilgan va ularni hal etish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, “Ota-onalar ikki xil: tug‘ilish otasi va ta’lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli”. Shunga ko‘ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so‘zлari anchayin ibratlidir: “Zamondan yaxshiroq ta’lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta’lim

oladigan o‘quvchini ko‘rmadim”. Uning bu so‘zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal q iluvchi ta’sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta’lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz. Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman, axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog‘laydi. Inson tabiati esa, avvalo, oilada shakllanadi. Ta’lim – tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida oolib beriladi. Shu jumladan Islom olaming muqaddas kitobi «Qur’oni Karim»da ham komillikning beshta tamoyili komillikka erishish uchun talab etiladi.

- 1.Mehnatim muhabbatim.
- 2.Ma’rifatim sarmoyam.
- 3.Dinim aqlim.
- 4.Ilmim qurolim.
- 5.Sabru qanoat libosim.

IX-XV asrlar Markaziy Osiyo ma’naviy madaniyati rivojida muhim davr hisoblanadi. Shu bois faylasuf, tarixchi, pedagog, matematik olimlar bu davr madaniy-ma’rifiy merosi haqida qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy madaniyat sohasiga qo’shgan ulushlari nihoyatda boy bo’lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo’nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. Ular Aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog’langa qadriyatlar; Ma’naviy-ruhiy qadriyatlar;

- Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
Badiiy-nafis qadriyatlar;
Diniy qadriyatlar tarzida o’z ifodasini topgan.

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limotini o’rganishda inson xislatlari to’g’risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o’zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, madaniy va ma’naviy olamini o’rganishga ahamiyat beradi. Uning ta’limotida, inson barcha boshqa jismarda bo’lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so’zlash

qobiliyatiga egaligi bu kuch uni tabiatdagi jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini bergenligi namoyon bo'ladi. Forobiy bu dunyoqarashida narsa-hodisalarini bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmli, ma'rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e'tibor beradi. U o'zining "Baxtsaodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati" kabi koplab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilm-ma'rifatga bog'liqligini ta'kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy (1878-1934 yillar) o'zining «Turkiy guliston yoqud axloq» nomli asarida «... bilim bizning aqlimizni va bizning xotiramizni qilich kabi o'tkir qiladi. Bilim, fanni egallash taraqqiyot yo'lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir.... Bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o'xshaydi» - deb yozadi. Shu bilan bir vaqtda A. Avloniy fanni o'zlashtirishga faqatgina hayoliy amaliyoti uchun utilitar (foydali) yaroqliligi nuqtai nazaridan yondoshish mumkin emas deb hisoblaydi. U hayot bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lмаган bilimlar ham bor va ular amaliy bilimlardan kam bo'lмаган ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Misol uchun qadimgi tarixdan amaliy faoliyatda foydalanimbo'lmaydi, lekin uni o'rganish kerak va foydalidir: uni (tarixni) bilish o'quvchilarining bilimlarini kengaytiradi, dunyoqarashni shakllantiradi. Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviyaxloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihat bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lган bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi. iy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lган sifatlar, xususan, qattiq qo'lli Abu Ali

ibn Sino o'z asarlarida, o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvoffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi

Bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;

Berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;

Ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;

Fanga qiziqtira olishi;

Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

Bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

Har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish. Alisher Navok, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Bugungi kunda zamonaviy fan tizimida fanlararo yondashuv rivojlanib borayotgan asosiy yo'naliш hisoblanadi. Bunda O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ijod qilgan mutafakkirlarning beqiyos xizmatlari bor. Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy kabi buyuk faylasuf va allomalarning asarlari jahon sivilizatsiyasining oltin xazinasidan munosib o'rin olgan. Ular jahon fani va madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan. Ammo mutafakkirlarimizning fanlararo yondashuvni rivojlantirishga qo'shgan hissasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Biz O'rta asr mutafakkirlarining ilmiy merosidagi fanlararo yondashuvni zamonaviy fan metodologiyasi asosida tadqiq etamiz. Allomalar ijodida bilimlararo integratsiya matematika, musiqa, arxitektura, san'at sohasida o'z aksini topgan. Buni dastlab matematikaning boshqa fanlar bilan integratsiya qilinishi misolida ko'rib chiqishimiz mumkin. Forobiy O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda matematikani boshqa fanlar bilan integratsiya qilish g'oyasini anglagan buyuk mutafakkir hisoblanadi. Aristoteldan farqli ravishda, Forobiy matematika metodlarining qo'llanish imkoniyatlari cheksiz ekanini e'tirof etadi.

Buyuk olimning bu g‘oyasi nafaqat matematika rivojida, balki fan tizimi taraqqiyotida ham buyuk hodisa edi. Shuningdek, Forobiy bu g‘oyani yanada kengroq qo‘llash usullarini amalda isbot qiladi. Masalan, olim fanda birinchi bor musiqaviy (tebranuvchi) hodisalarni matematik usullar bilan tadqiq qiladi. Forobiy boshlab bergen bu tashabbusni keyinchalik boshqa olimlar o‘z tadqiqotlarida davom ettirib, yanada rivojlantirdi. Movarounnahrlik mutafakkirlar ijodida musiqa va matematika, pedagogika va musiqaning uyg‘unlashuvi yuksak darajaga ko‘tarilgan. Forobiy bunga “Musiqa haqida katta traktat”, Xorazmiy esa “Ilm kaliti” nomli ensiklopediyasining bir bo‘limini bag‘ishlagan. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida musiqa haqida alohida bir bo‘lim mavjud.Undan tashqari “Tib qonunlari ” asarining yana bir bobি tarbiya,nutq ,bizni kelajak avlodimizga ta’lim tarbiya berishga bag‘ishlangan.O‘rta asrlar mutafakkirlari ijodida bilim doimo ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan. Ular bilim insonda yaxshi fazilatlarni rivojlantirishi lozimligini ta’kidlagan. Ana shunday bilimlardan biri bolalarni musiqani anglashga o‘rgatish va musiqa vositasida ijobiy sifatlarni shakllantirish bo‘lgan. Ya’ni, mutafakkirlarimiz insonni tarbiyalash masalasini hal qilishda musiqa amaliyotidan foydalanish zarur deb bilgan. Shuningdek, ular musiqa insonning qalbi va aqlini tarbiyalash xususiyatiga ega ekanini ta’kidlagan. Bunday yondashuv Forobiy ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. U bolalarni axloqiy tarbiyalashda ularni musiqaga oshno etish zarur deb hisoblagan. Olimning fikriga ko‘ra, musiqa bolalarda ijobiy ruhiy hislarni chaqiradi, bolalar qalbi poklanishiga sabab bo‘ladi. Forobiy bunday ruhiy poklanishni “katarsis” deb ataydi. Shuningdek, u musiqa bolalarga ruhiy davolovchi vosita sifatida ham samarali ta’sir ko‘rsatishini aytib o‘tgan. Ibn Sino inson ruhiy holati ijro etilayotgan musiqa bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Tovushlar garmoniyasi insonni kuchsizlikdan kuchlilik tomon olib chiqishi, yoki aksincha, uyg‘unlashmagan tovushlar insonni tushkunlikka tushirib qo‘yishi mumkin. Shuningdek, Ibn Sino “insonning salomatligi uchun eng foydali mashg‘ulot – kuylash”, deydi.Bolalarga ta’lim tarbiya berish jarayonida faqatgina bilim beribgina

qolmay balki, bolalarni musiqa san'at , fan, tabiat, bilan ham tanishtirish albatta ularga ijobiy ta'sir etmay qolmaydi. O'rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy pedagogik g'oyalari. Ijtimoiy pedagogik g'oyalalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg'onishi davri olimlarining asarlari beqiyos o'ringa ega. Ular faoliyatining mohiyati shuki avval mavjud bo'lgan o'sha davrni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asoslangan tizimi asosida to'planganligidadir. Yetuk olimlarning faoliyat xarakteri-ilm bilan mashg'ul bo'lish ijtimoiy pedagogik qarashlarning mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Al-Xorazmiy-Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek-kabi olimlar o'z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini tushunishgan va buni tadbiq etishgan. Bu avvalambor ular ta'limning maqsadi hayotga tayyorlash, axloqiy norma va qoidalar, kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo'lishida deb bilganliklarida namoyon bo'lган. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (980-1037 y) o'z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan. Uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar mavjud. Biz uning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof muhit ta'siri, axloqiy va mehnat tarbiyasi, muomala san'ati, bolalarni jamoada o'qitish haqidagi g'oyalari muhim hisoblanadi. Forobiy, ibn Sino, Beruniy ta'lim muammolari bo'yicha bir xil fikrlar bildirgan va insonning jamiyatga sermahsul xizmat qilishi uchun o'z aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta'lim vazifasini ajratib ko'rsatganlar. Ta'limning rivojlatiruvchi vazifasini amalga oshirish maqsadida ular quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanishni maslahat bergenlar:

- asta-sekin tushunchalarning murakkablashuvi;
- amaliyotni tajriba bilan bog'lash;
- qabul qila olishlik;
- ko'rgazmalilik.

Ibn Sinoning fikricha ijtimoiylashtirish ko'nikmalari jamoa bo'lib o'qitish shaklida yaxshi shakllanadi. Buning uchun u quyidagilarga asoslanishi lozim: Ta'lism oluvchilar, o'qituvchi va o'quvchilar orasida tajriba, bilim, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil qilish. Musobaqalashuv elementidan foydalanish. O'quvchining ijtimoiy axloqiy xususiyatlarini-muomala, o'zaro tushunish, o'zaro yordam, do'stlik hissini rivojlantirish. Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganligi, ularning avvalambor hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta'lism maqsadini sharhlashlarida o'z ifodasini topgan. Shaxsning jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishini ta'minlab beruvchi eng muhim xususiyatlar deb, ular mehribonlik, yaqinlarga yordam, g'urur, vijdon, yaxshi niyatlilik, sabrni bilishgan. O'quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnat tayyorgarliklariga katta e'tibor qaratib, Forobiy va ibn Sino yoshlarning jamiyatga "kirish"larining eng muhim omillari sifatida, faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, ijodiy qobiliyatni hisoblashgan. Ijtimoiy tarbiyada o'qituvchiga yetakchi o'rin ajratib, Forobiy uning faoliyatini, jamiyatning kelajagi unga bog'liq bo'lgan hukmdor faoliyatiga qiyoslaydi. Forobiy ham ibn Sino kabi pedagog o'quvchilarning bilimlarini hayotga tadbiq etishlariga e'tibor berish lozimligiga ishora qilgan. Qomusiy olimlar shaxsiy namunaga nihoyatda katta e'tibor berishgan hamda o'zları ham intiluvchanlik, yuqori ijtimoiy mavqe'ga erishganlik namunasi bo'lib xizmat qilishgan. Forobiy nihoyatda mehnatsevar, irodali, kamtar, sodda bo'lgan va doim yordamga intilgan. Forobiyning o'quvchilarning individual psixologik va aqliy xususiyatlariga mos tushuvchi ta'limgi usuli, kasb tanlash muhimligi haqidagi fikrlari hozir ham katta ahamiyatga ega. Allomalarimiz qoldirgan meroslari o'lmas bo'lib ular haqda qancha gapirsak ularni qancha e'zozlasak shuncha kamdir. Bola shunday ajdodlari borligini bilsa ularning meroslari bilan tanishsa albatta o'zlariga ulkan motivatsiya oladi. Bu esa kelajakda uni har

tomonlama komil har tomonlama yetuk bo‘lib voyaga yetishi uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Islom Abdug‘aniyevich Karimovning „Barkamol avlod orzusi ”
- 2.Farobiy „Fozil odamlar shahri ”.
- 3.,„Ma’naviyat asoslari”kitobi.
- 4.,„Maktabgacha pedagogika ”Z.R.Qodirova
- 5.Islom Abdug‘aniyevich Karimov „Barkamol avlod orzusi ”
- 6 Google,Ijtimoiy tarmoq,
- 7.Maktabgacha pedagogika,Sh.Sodiqova.